



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,  
18-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<a href="#">Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</a>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori .....	14
<a href="#">Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</a>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<a href="#">Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</a>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni .....	23
<a href="#">Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</a>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari .....	28
<a href="#">B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<a href="#">Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</a>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<a href="#">Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</a>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	47
<a href="#">A. Safarov</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<a href="#">Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</a>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi .....	60
<a href="#">Xolmurodova Sarvinoz</a>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<a href="#">G'afforova Dildora Ergashevna</a>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<a href="#">Yusupova Umida Zayniddin qizi</a>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</a>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil .....	78
<a href="#">Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</a>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi .....	81
<a href="#">Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<a href="#">Xurramova Sojida Abdunazar qizi</a>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<a href="#">Risvayeva Charos Zaydilla qizi</a>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi .....	94
<a href="#">Z. N. Urunova, M. Jaborova</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash .....	97
<a href="#">Sattorova Shirinoy San'atovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<a href="#">Buvrayev Akram Rustam o'g'li</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar .....	104
<a href="#">Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</a>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati .....	107
<a href="#">Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</a>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi .....	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish .....	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements .....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari .....	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish .....	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi .....	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя .....	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor .....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri .....	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli .....	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni .....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari .....	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish .....	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti .....	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	СОДЕРЖАНИЕ
	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction ..... 205 <i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>	
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati ..... 208 <i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari ..... 214 <i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>	
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari ..... 219 <i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>	
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish ..... 222 <i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>	
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari ..... 226 <i>Norboeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>	
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari ..... 230 <i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>	
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili ..... 236 <i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>	
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ..... 240 <i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>	
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ..... 245 <i>Raximov Zokir Toshtemirovich</i>	
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari ..... 249 <i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>	
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish ..... 253 <i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>	
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish ..... 257 <i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>	
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari ..... 261 <i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>	
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va reflektiv asoslari ..... 264 <i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>	
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations ..... 268 <i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>	
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari ..... 272 <i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>	
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi ..... 276 <i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>	
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools ..... 279 <i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>	
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration ..... 282 <i>Shahlo Obidova</i>	
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 286 <i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>	
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari ..... 290 <i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) .....	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие .....	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



## TALABALAR UCHUN AMALIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA TEXNIK LOYIHALARNING O'RNI



**Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li**  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
"Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedrasida stajyor  
o'qituvchisi  
**ORCID: 0009-0008-2205-2078**



**Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li**  
Vatan universiteti "Telekommunikatsiya injiniringi"  
M031-25 Tlo' talabasi  
**ORCID: 0009-0003-9916-7141**

**Annotatsiya:** Talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda texnik loyihalar asosida o'qitishning nazariy asoslari, amaliy afzalliklari hamda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar yoritiladi. Loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning – PBL) metodologiyasini oliy ta'lim muassasalarida joriy etishning samarali yo'llari, real muammolarni hal etishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimi va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari hamda olingan statistik ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** texnik loyihalar, amaliy ko'nikmalar, loyiha asosidagi ta'lim, kasbiy kompetensiya, oliy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, raqamli muhit, muammoga asoslangan ta'lim, STEM ta'limi.

**Abstract:** The role and importance of technical projects in developing students' practical skills are analyzed. The study examines the theoretical foundations of project-based learning (PBL), its practical advantages, and the pedagogical conditions that contribute to the development of students' professional competencies. Effective approaches for implementing project-based learning methodology in higher education institutions, task systems aimed at solving real-world problems, and opportunities for the use of digital technologies are scientifically substantiated. In addition, the results of the experimental research and the obtained statistical indicators are analyzed.

**Key words:** technical projects, practical skills, project-based learning, professional competency, higher education, pedagogical technologies, digital environment, problem-based learning, STEM education.

**Аннотация:** Анализируются роль и значение технических проектов в формировании практических навыков студентов. Рассматриваются теоретические основы проектного обучения, его практические преимущества, а также педагогические условия, способствующие развитию профессиональных компетенций обучающихся. Научно обосновываются эффективные пути внедрения методологии проектного обучения (Project-Based Learning – PBL) в высших учебных заведениях, система заданий, ориентированных на решение реальных проблем, а также возможности использования цифровых технологий. Кроме того, анализируются результаты экспериментального исследования и полученные статистические показатели.

**Ключевые слова:** технические проекты, практические навыки, проектное обучение, профессиональная компетентность, высшее образование, педагогические технологии, цифровая среда, проблемно-ориентированное обучение, STEM-образование.

## KIRISH

Zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida faoliyat yurita oladigan, real texnik muammolarni mustaqil hal eta biladigan, jamoa bo'lib ishlash va loyiha boshqaruvi ko'nikmalariga ega kadrlar tayyorlash bugungi oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Jahon ta'lim tizimlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, yetakchi texnik universitetlar o'z o'quv jarayonlarini tobora ko'proq amaliy loyiha topshiriqlari, real sanoat muammolari va hamkorlikka asoslangan faoliyat atrofida qurmoqda.

O'zbekistonda ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim tizimini joriy etish masalasi alohida e'tiborga molik. 2022–2026–yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashni mehnat bozori talablariga moslashtirish va yoshlarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Aynan shu nuqtai nazardan, texnik loyihalar asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish metodologiyasi amaliy va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Texnik loyihalar asosida o'qitish – talabalarni real hayotiy muammolar yechimini topishga yo'naltiruvchi, amaliy tajriba orqali bilimlarga ega bo'lishni ta'minlovchi zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida dunyo ta'lim tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv talabalarda nafaqat texnik bilimlarni mustahkamlaydi, balki muammoni aniqlash, loyiha bosqichlarini rejalashtirish, natijalarni taqdim etish kabi kasbiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, guruh loyihalarida ishtirok etish talabalarning kommunikativ ko'nikmalari, mas'uliyat hissi va liderlik fazilatlarini shakllanishiga zamin yaratadi.

Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning nazariy asoslari, amaliy strategiyalari va samarali tatbiq etish mexanizmlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida mavjud tajribalar, xorijiy ilg'or modellarning afzalliklari hamda loyiha asosidagi ta'limning istiqbolli yo'nalishlari bayon etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning – PBL) metodologiyasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalishning pedagogika fanida chuqur o'rganilganligini ko'rsatadi. Ushbu sohadagi ilmiy ishlarni shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin: nazariy-metodologik asoslar, amaliy tatbiq etish tajribalari va texnik ta'limga moslashtirilgan modellar.

J. Dewey va W. Kilpatrick loyiha metodining asoschilaridan biri sifatida amaliy tajribaning bilim o'zlashtirishdagi o'rnini asoslab bergan. Ularning ishlarida ta'kidlanishicha, haqiqiy o'rganish faoliyat jarayonida, real muammolar ustida ishlash orqali yuzaga keladi <sup>[1]</sup>. Bu g'oya zamonaviy STEM ta'limining asosini tashkil etib, texnik fanlarni o'qitishda amaliy loyiha topshiriqlarini markaziy o'ringa qo'yadi. Deweyning “Learning by Doing” – “Faoliyat orqali o'rganish” tamoyili bugungi kunda ham texnik ta'limning poydevori hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotchilar T. Markham, J. Larmer va J. Mergendoller loyiha asosidagi ta'limning asosiy belgilarini – muammoning dolzarbligi, talabaning markaziy roli, hamkorlikda ishlash va natijalarni jamoatchilikka taqdim etishni – aniq belgilab bergan <sup>[2]</sup>. Ularning ishlari PBL metodologiyasini oliy ta'limda tatbiq etishning asosiy tamoyillarini shakllantirgan. Jumladan, “Gold Standard PBL” modeli bugungi kunda keng qo'llanilib, quyidagi asosiy mezonlarni o'z ichiga oladi: muammoning murakkabligi, mustaqil o'rganish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va natijalarni taqdim etish.

Mahalliy tadqiqotchilar N. Muslimov, R. Mavlonova, B. Yo'ldoshev professional ta'limda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini o'rgangan bo'lib, ularning ishlari o'zbek ta'lim tizimiga moslashtirilgan yondashuvlarni taklif etadi <sup>[3]</sup>.



Texnik ta'lim muassasalarida loyiha usulidan foydalanish samaradorligi haqidagi tadqiqotlar loyihaviy faoliyatning talabalarda kasbiy tafakkur va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, mahalliy pedagoglar real ishlab chiqarish muammolariga asoslangan loyiha topshiriqlarining talabalar motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qilishini qayd etgan.

Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari sohasidagi zamonaviy adabiyotlarda M. Fullan va A. Collins texnik loyihalarni raqamli platformalar orqali boshqarish, masofaviy hamkorlik va virtual muhitda loyiha natijalarini taqdim etish imkoniyatlarini yoritgan [4]. Bu esa texnik ta'limda loyiha asosidagi o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. GitHub, Trello, Jira, Figma kabi zamonaviy raqamli vositalar nafaqat loyihani boshqarish, balki talabalarda real kasbiy muhit ko'nikmalarini shakllantirish uchun ham samarali qo'llanilmoqda.

Sharhlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnik loyihalar asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tizimli yondashuvni, pedagogik innovatsiyalarni, raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni va sanoat hamkorligi mexanizmlarini talab qiladi. Shu bilan birga, ilmiy manbalar oliy ta'lim muassasalaridan integrativ, kreativ va shaxsga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishni asosiy vazifa sifatida ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini loyiha asosidagi ta'lim nazariyasi, konstruktivistik pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv tashkil etdi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim passiv qabul qilish natijasida emas, balki faol qurilish jarayonida, ya'ni muammolar ustida ishlash, tajriba o'tkazish va hamkorlikda izlanish orqali shakllanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish;
- pedagogik kuzatuv (semestr davomida);
- talabalar (n = 120) va o'qituvchilar (n = 18) o'rtasida so'rovnoma o'tkazish;
- eksperimental-sinov ishlari (nazorat va tajriba guruhlarini bilan);
- olingan ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish (t-test, dispersiya tahlili).

Tadqiqot Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU "Axborot ta'lim texnologiyalari" kafedrasida 2023–2024–o'quv yili davomida amalga oshirildi.

Eksperimental guruhda (60 nafar talaba) texnik loyihalar asosida o'qitish metodologiyasi to'liq tatbiq etildi. Nazorat guruhida (60 nafar talaba) an'anaviy ma'ruza-seminar shaklidagi ta'lim davom ettirildi. Tadqiqotning boshlanish va yakuniy bosqichlarida talabalarining amaliy ko'nikmalari maxsus ishlab chiqilgan kriterial testlar, loyiha taqdimotlari va ekspert baholash usullari yordamida o'lchandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning rolini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari ushbu metodologiyaning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalarini uch asosiy yo'nalish bo'yicha ko'rib chiqish mumkin: diagnostika bosqichi natijalari, eksperimental tatbiq natijalari va statistik tahlil xulosalari.

Diagnostika bosqichida o'tkazilgan so'rovnomada qatnashgan talabalarining 71 foizi an'anaviy ma'ruza-seminar shaklida o'tkazilgan mashg'ulotlarda amaliy ko'nikmalarni yetarli darajada shakllantira olmasligini qayd etdi. O'qituvchilarning 63 foizi esa mavjud o'quv dasturlari kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda to'liq samarali emasligini ta'kidladi. Kuzatuvlar davomida an'anaviy ta'lim sharoitida talabalarining faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiynalayotganligi aniqlandi.

1-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlarini taqqoslash natijalari**

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Amaliy ko'nikmalar darajasi	52	86
Muammoni mustaqil hal etish	48	89
Jamoaviy ishlash ko'nikmasi	55	83
Kasbiy motivatsiya darajasi	61	91
Loyiha taqdimoti ko'nikmasi	44	82

Eksperimental bosqichda texnik loyihalar asosida ishlab chiqilgan o'quv modeli tatbiq etildi. Ushbu model to'rt asosiy bosqichni o'z ichiga oldi:

- 1) muammoni aniqlash va loyiha maqsadlarini belgilash;
- 2) jamoa tarkibini shakllantirish va vazifalarni taqsimlash;
- 3) texnik yechimni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish;
- 4) natijalarni taqdim etish va kompleks baholash.

Har bir bosqichda o'qituvchi moderator sifatida faoliyat yuritdi – yo'naltirdi, maslahat berdi, ammo tayyor yechim taklif qilmadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, loyiha asosida o'qitish qo'llangan guruhlarda talabalarning amaliy ko'nikmalar darajasi 34 foizga oshgan, muammoni mustaqil hal etish ko'rsatkichi 41 foizga yaxshilangan, jamoaviy ishlash qobiliyati 28 foizga rivojlangan, kasbiy motivatsiya 30 foizga oshgan, loyiha natijalarini taqdim etish ko'nikmasi esa 38 foizga yuksalgan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlandi:

1. Texnik loyihalar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi va o'rganilgan materialni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Darsda o'tilgan nazariy ma'lumotlar loyiha topshirig'ini bajarishda bevosita qo'llanilganda, bilimlar mustahkam o'rnashadi.
2. Real muammolarga asoslangan topshiriqlar talabalarda kasbiy tafakkurni rivojlantiradi va o'quv jarayoniga qiziqishni oshiradi. Talabalar o'z loyihalari natijasida yuzaga keladigan haqiqiy mahsulot yoki yechimni ko'rganlarida, ularning motivatsiyasi sezilarli darajada ortadi.
3. Raqamli platformalar (GitHub, Trello, Figma, VS Code) orqali loyihani boshqarish zamonaviy kasbiy muhitda talab qilinadigan ko'nikmalarni bevosita shakllantiradi. Ushbu vositalar talabalarga kelajakdagi ish joylarida qo'llaniladigan texnologiyalar bilan tanishish imkonini beradi.
4. Loyiha natijalarini jamoatchilikka taqdim etish talabalarning kommunikativ, taqdimot va o'z fikrini asoslab bera olish ko'nikmalarini rivojlantiradi – bu esa zamonaviy kasbiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega.
5. Sanoat hamkorlari ishtirokida o'tkazilgan loyihalar talabalarni real ish muhitiga tayyorlaydi. Hamkor tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan baholash talabalarda mas'uliyat va professional yondashuv hissini kuchaytiradi.

Statistik tahlil natijalari qo'llanilgan metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farq t-test ko'rsatkichlari orqali baholandi hamda o'zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli ekanligi isbotlandi ( $p < 0.05$ ). Pearson korrelyatsiya koeffitsienti loyihalar murakkablik darajasi va ko'nikmalar o'sishi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik ( $r = 0.78$ ) mavjudligini ko'rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning muhim va samarali pedagogik vosita ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Loyiha asosidagi ta'lim metodologiyasi nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatni uyg'unlashtirish, talabalarda kasbiy kompetensiyalar, ijodiy fikrlash, muammoni hal etish va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Eksperimental natijalarda ko'rsatilganidek, texnik loyihalar asosida o'qitish an'anaviy usullarga nisbatan barcha o'Ichangan ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli afzallikni namoyish etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, texnik loyihalar samarali bo'lishi uchun bir qator pedagogik shartlar bajarilishi lozim: loyiha mavzusi real hayotiy muammolardan kelib chiqishi, talaba faoliyatining markaziy o'rinda bo'lishi, o'qituvchining moderator rolini bajarishi, natijalarning ommaviy taqdimoti tashkil etilishi va kompleks baholash tizimining joriy etilishi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida texnik fanlarni o'qitishda loyiha asosidagi ta'lim metodologiyasini tizimli joriy etish va uni o'quv dasturlariga majburiy tarkibiy qism sifatida kiritish.
2. Har bir o'quv semestri uchun real sanoat hamkorlari – IT kompaniyalari, startaplari, davlat muassasalari – ishtirokida amaliy texnik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.
3. Talabalarning loyiha faoliyatini baholashda kompetensiyaviy yondashuv asosida kriterial mezonlar tizimini yaratish: texnik sifat, jamoaviy ish, taqdimot va hujjatlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha baholash.



4. GitHub, Trello, Jira, Figma kabi zamonaviy raqamli loyiha boshqaruvi vositalaridan foydalanishni o'quv jarayoniga integratsiya qilish va talabalarda ushbu vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.
5. O'qituvchilarning loyiha asosidagi ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha malakasini muntazam oshirish – maxsus treninglar, master-klasslar va xalqaro tajriba almashinuvi orqali.
6. Universitetlar va IT kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlikni institutsional darajada kuchaytirish: talabalar loyihalarini real ish sharoitida sinovdan o'tkazish, mentorlik dasturlari va amaliyot o'rinlarini ta'minlash.
7. Universitetlarda "Texnik loyihalar laboratoriyasi" – hackathon, startap va innovatsion loyihalar uchun maxsus muhit yaratish, bu esa talabalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Texnik loyihalar asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan va kasbiy talablarga mos pedagogik yondashuvni talab qiladi. Taklif etilgan model va metodlar o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga, talabalarning intellektual va kasbiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni boshqa texnik ixtisosliklar bo'yicha kengaytirish va xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlil o'tkazish maqsadga muvofiq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. Experience and education. - New York: Collier books, 1938. - 91 p.
2. Markham T., Larmer J., Mergendoller J. Project based learning handbook. - Buck institute for hducation, 2003. - 184 p.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi. - Toshkent: Fan, 2004. - 240 b.
4. Fullan M. The New pedagogy: Students and teachers as learning partners // learning landscapes. - 2013. - vol. 6, № 2. - P. 23-29.
5. Thomas J.W. A Review of research on Project-based learning. - San Rafael: Autodesk foundation, 2000. - 47 p.
6. Blumenfeld P.C. et al. Motivating project-based learning: Sustaining the doing, supporting the learning // Educational psychologist. - 1991. - vol. 26, № 3-4. - p. 369-398.
7. Kilpatrick W.H. The Project method // Teachers college record. - 1918. - vol. 19, № 4. - P. 319-335.
8. Mavlonova R. Ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: O'qituvchi, 2010. - 196 b.
9. Collins A., Halverson R. Rethinking education in the age of technology. - New York: teachers college press, 2009. - 197 p.
10. Axmadaliyev M.E. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli ekotizimni shakllantirish va uning xalqaro integratsiyadagi strategik ahamiyati. // Ta'lim, fan va innovatsiya. - 2026. - № 2. - B. 114-117.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.